



UDK:8-1751-8126

Malika MIRVALIYEVA,
Toshkent davlat transport universiteti o'qituvchisi
E-mail: m.mirvalieva@mail.ru

Dotsent Sh.Rustamova taqrizi asosida

SCIENTIFIC TERMS AND THEIR TRANSLATIONAL CORRESPONDENCE

Annotation

This article analyses the linguistic and cultural aspects of translating scientific terms and examines the main challenges that arise when rendering scientific terminology into other languages. It explores the principles of selecting equivalents and the methods used in the translation process. In particular, the effectiveness of transliteration, calquing, and explanatory translation methods is assessed, highlighting their advantages and limitations. Additionally, the role of translators and the importance of terminological adaptation in ensuring clarity and precision in scientific discourse are emphasized. The study provides recommendations for improving the translation of scientific terms and demonstrates its significance in interdisciplinary communication.

Key words: Scientific terms, translation, terminology, equivalent selection, transliteration, calquing, explanatory translation, linguistic adaptation, scientific discourse, interdisciplinary communication.

НАУЧНЫЕ ТЕРМИНЫ И ИХ ПЕРЕВОДЧЕСКОЕ СООТВЕТСТВИЕ

Аннотация

В данной статье анализируются лингвистические и культурные аспекты перевода научных терминов и рассматриваются основные проблемы, возникающие при передаче научной терминологии на другие языки. В ней изучаются принципы подбора эквивалентов и методы, используемые в процессе перевода. В частности, оценивается эффективность методов транслитерации, калькирования и пояснительного перевода, выделяются их преимущества и ограничения. Кроме того, подчеркивается роль переводчиков и важность терминологической адаптации в обеспечении ясности и точности в научном дискурсе. В исследовании даются рекомендации по улучшению перевода научных терминов и демонстрируется его значение в междисциплинарной коммуникации.

Ключевые слова: Научные термины, перевод, терминология, подбор эквивалентов, транслитерация, калькирование, пояснительный перевод, лингвистическая адаптация, научный дискурс, междисциплинарная коммуникация.

ILMIY ATAMALAR VA ULARNING TARJIMADAGI MOSLASHUVI

Annotatsiya

Berilgan maqolada ilmiy atamalar tarjimasining lingvistik va madaniy jihatlarini tahlil qilinadi hamda ilmiy terminlarning boshqa tillarga o'girilishida yuzaga keladigan asosiy muammolar, ekvivalent tanlash tamoyillari hamda tarjima jarayonida qo'llaniladigan usullar o'rganiladi. Xususan, transliteratsiya, kalkalash va izohiy tarjima metodlarining samaradorligi tahlil qilinib, ularning afzalliklari va cheklovlari yoritiladi. Shuningdek, ilmiy diskursning aniq va tushunarli bo'lishi uchun tarjimonlarning roli hamda terminologik moslashuvning ahamiyati ta'kidlanadi. Ishda ilmiy atamalar tarjimasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilib, fanlararo muloqotda uning o'rni ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Ilmiy atamalar, tarjima, terminologiya, ekvivalent tanlash, transliteratsiya, kalkalash, izohiy tarjima, lingvistik moslashuv, ilmiy diskurs, fanlararo muloqot.

Kirish. Bugungi kunda fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi ilmiy terminologiyaning shakllanishi va rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Turli fan sohalarida yuzaga kelayotgan yangi tushuncha va hodisalar uchun maxsus atamalar ishlab chiqiladi. Bunday atamalar milliy tilga tarjima qilinganida ularning mazmun-mohiyatini saqlash, ilmiy aniq va izchil bo'lishini ta'minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois, ilmiy atamalar tarjimasi nafaqat tilshunoslik, balki fan falsafasi, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi va kommunikatsiya nuqtayi nazaridan ham muhim tadqiqot yo'nalishidir.

Ilmiy atamalar tarjimasida bir necha muhim masalalar yuzaga keladi. Avvalo, atamalarni bevosita tarjima qilish har doim ham ularning ma'nosini to'liq aks ettira olmaydi. Masalan, ba'zi atamalar lug'aviy jihatdan oson tarjima qilinishi mumkin bo'lsa-da, ularning semantik va kontekstual jihatlarini mos tushmasligi mumkin. Har bir tilning o'ziga xos leksik va grammatik xususiyatlari borligi sababli, tarjima jarayonida moslashuv usullaridan foydalanish talab etiladi.

Moslashuv jarayoni odatda quyidagi asosiy usullarga tayanadi: transkripsiya, transliteratsiya, kalkalash, ekvivalent yaratish va izohiy tarjima. Har bir usulning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari bor. Masalan, transkripsiya va transliteratsiya original atamani saqlab qolish imkonini beradi, biroq milliy tilning fonetik va grammatik qoidalariga mos kelmasligi mumkin.

Kalkalash esa asl ma'noni to'g'ridan-to'g'ri aks ettiradi, lekin ba'zan sun'iy yoki tushunarsiz iboralar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, ilmiy atamalar tarjimasida xalqaro va mahalliy terminologiyani uyg'unligini ta'minlash masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Ayrim hollarda xalqaro terminologiyani to'g'ridan-to'g'ri qabul qilish ilmiy aloqalarni osonlashtirsa, boshqa holatlarda milliy til imkoniyatlarini ishga solish, mavjud lug'at boyligini kengaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu jarayonda ilmiy hamjamiyat va tilshunos olimlarning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, turli fan sohalaridagi tarjima uslublari, ularning afzallik va kamchiliklari, amaliy tajribalar va ilmiy-nazariy yondashuvlarni ko'rib chiqish bugungi kun tarjima fanining dolzarb mavzusiga aylanadi. Shu asosda, ilmiy terminologiyani tarjima qilish va moslashtirish jarayonlarini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy atamalar tarjimasi va ularning moslashuvi mavzusida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Xalqaro Fan va Texnologiya Akademiyasi tomonidan ilmiy terminologiyani standartlashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarni o'rganish jarayonida aniqladikki, ilmiy atamalar tarjimasi global va mahalliy omillarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, terminologik moslashuvni ta'minlash uchun lingvistik va madaniy o'ziga xosliklar inobatga olinishi kerak.

Tilshunos olimlar A.Smith, M.Cabre va B.Johnson [1.2] o'z tadqiqotlarida ilmiy atamalarni tarjima qilishda kontekstual yondashuv muhimligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, so'zlarning leksik ma'nosini saqlash bilan birga, ilmiy terminlarni aniq va ravon tushuntirish ham zarur. Ushbu yondashuv tarjima jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbek tilshunosligida ilmiy atamalar tarjimasi bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar orasida A.Hojiyev, X.Dadaboyev, S.Akobirov, G'.Axmedov, H.Bektemirov, O.Axmedov va R.Mamatqulovlarning [3.4.5.6.7.8] ishlarini alohida ta'kidlash mumkin. Ular ilmiy terminlarning milliy tildagi moslashuvi, ularning semantik jihatdan to'g'ri ekvivalentlarini yaratish masalalariga e'tibor qaratgan. Izlanishimiz shuni ko'rsatadiki, har bir tilning o'z terminologik tizimi mavjud bo'lib, uni o'zboshimchalik bilan o'zgartirish fan rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan terminologik tadqiqotlar ham tarjima jarayonining murakkabligini tasdiqlaydi. Masalan, UNESCO va ISO tomonidan ishlab chiqilgan standartlar ilmiy atamalarni umumiy qoidalar asosida moslashtirish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa ilmiy sohalar o'rtasidagi o'zaro tushunishni yaxshilashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ilmiy atamalar tarjimasi va ularning moslashuvi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ushbu jarayonning kompleks va ko'p qirrali ekanligini ko'rsatmoqda. Shu bois, tarjimonlar va ilmiy xodimlar terminologiya muammolarini hal qilish uchun turli metodologik yondashuvlardan foydalanishi lozim. Ilmiy atamalarni tarjima qilish va moslashtirish jarayoni doimiy izlanish va takomillashtirishni talab etadi.

Muhokama. Ilmiy atamalar tarjimasi va ularning moslashuvi muammolari ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ularning muvaffaqiyatli hal qilinishi ilmiy aloqalar samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Ilmiy terminlarni tarjima qilishda terminologik moslashuv usullaridan foydalangan holda, ularni milliy tilga uyg'unlashtirish dolzarb masalalardan biridir.

Birinchidan, ilmiy atamalarning tarjimasi jarayonida aniqlik va izchillikni ta'minlash muhimdir. Agar ilmiy atamalar turlicha tarjima qilinsa, bu tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, ilmiy terminologiyani standartlashtirish va uni yagona qoida asosida ishlab chiqish zarur. Bunda davlat til siyosati, akademik muassasalar va xalqaro tashkilotlarning roli katta ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, ilmiy terminlarni tarjima qilishda lingvistik va madaniy tafovutlar inobatga olinishi lozim. Masalan, ba'zi tillarda muayyan ilmiy tushunchalarga mos keladigan ekvivalentlar mavjud bo'lsa, boshqa tillarda bu kabi ekvivalentlarni yaratish zaruriyati tug'iladi. Tarjima jarayonida milliy til imkoniyatlarini ishga solish orqali yangi terminlar ishlab chiqilishi mumkin.

Uchinchidan, ilmiy atamalar tarjimasida xalqaro terminologiyaga yaqinlashish masalasi ham muhim sanaladi. Xalqaro atamalarni saqlab qolish ilmiy muloqotni yengillashtirsada, ularni milliy tilga moslashtirish ilm-fan rivojini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Bu borada xalqaro tajribadan foydalanish va ilmiy hamkorlikni kengaytirish tavsiya etiladi.

To'rtinchidan, ilmiy atamalar tarjimasida amaliy tajribalar va turli tillardagi muvaffaqiyatli yondashuvlarni o'rganish foydali bo'lishi mumkin. Masalan, ba'zi davlatlarda ilmiy terminologiyani yagona standart asosida ishlab chiqish uchun maxsus ilmiy markazlar tashkil etilgan. Bunday tajribani o'rganish va milliy til sharoitiga moslashtirish ilmiy tarjima sifatini oshirishga yordam beradi.

Ilmiy atamalar tarjimasi va ularning moslashuvi masalasi fan va ta'lim jarayonining ajralmas qismidir. Bu borada lingvistlar, tarjimonlar, ilmiy xodimlar va mutaxassislarning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Ilmiy terminologiyani takomillashtirish va uni zamonaviy ilmiy talablarga moslashtirish ilmiy taraqqiyotning muhim shartlaridan biridir. Kelgusida ilmiy atamalar tarjimasi bo'yicha izlanishlarni davom ettirish va ilg'or tajribalarni o'rganish zaruriyatini ta'kidlab o'tish lozim.

Natija. Ilmiy atamalar tarjimasi va ularning moslashuvi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu jarayon chuqur ilmiy tahlil va kompleks yondashuvni talab etadi. Ilmiy terminlarni aniq va izchil tarjima qilish ilmiy muloqotning samaradorligini oshiradi, chunki fan sohasidagi tushunchalar va g'oyalar faqat aniq ifodalangandagina to'g'ri anglanishi va amaliyotda qo'llanilishi mumkin. Shu sababli, ilmiy terminlarni tarjima qilish va moslashtirish jarayonida maxsus terminologik qo'llanmalar, ilmiy standartlashtirish tamoyillari hamda xalqaro tajribadan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy atamalar tarjimasida nafaqat lug'aviy ekvivalentlarni topish, balki lingvistik va madaniy omillarni ham hisobga olish zarur. Har bir tilning o'ziga xos terminologik tizimi mavjud bo'lib, bu tizim fan va texnologiya rivojiga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois, tarjimonlar, olimlar va mutaxassislar ilmiy terminlarni milliy tilga moslashtirishda xalqaro atamalarga uyg'un keladigan shakllarni ishlab chiqishlari va ularni keng jamoatchilikka tushunarli tarzda yetkazishlari lozim. Bu jarayonda terminlarning kelib chiqishini, ularning turli tillardagi qo'llanish tajribasini va ma'lum bir ilmiy an'analar bilan bog'liqligini hisobga olish katta ahamiyatga ega.

Xalqaro ilmiy terminologiyaga yaqinlashish va uni milliy tilda to'g'ri aks ettirish ilmiy muloqotni osonlashtiradi, turli mamlakat olimlari o'rtasidagi ilmiy hamkorlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, ba'zi hollarda terminlarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish tushunmovchiliklarga yoki noto'g'ri talqinga olib kelishi mumkin. Bu muammoni samarali hal qilish uchun ilmiy terminlarni har tomonlama o'rganish, ularning qo'llanish doirasini aniqlash va fan sohalariga qarab optimal yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Shuningdek, ilmiy terminlarni o'zlashtirish va ularni keng ilmiy muhitda qo'llash jarayonida mutaxassislarning fikr-mulohazalari, izchil tahlil va tajribalar asosida ishlab chiqilgan uslubiy yondashuvlarga tayanish lozim.

Shu sababdan, ilmiy atamalar tarjimasi va ularning moslashuvi bo'yicha tadqiqotlarni izchil davom ettirish katta ahamiyatga ega. Ilmiy terminologiyani izchil rivojlanishi, xalqaro standartlarga moslashtirilishi va milliy fan tilining boyitilishi ilmiy bilimlarning keng tarqalishiga xizmat qiladi hamda ta'lim sifatining oshishiga yordam beradi. Bunday jarayonlarning samarali kechishi uchun ilmiy hamjamiyatning faol hamkorligi, ilmiy tarjima jarayonlarini takomillashtirish borasidagi doimiy izlanishlar va yangi metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish zarur bo'ladi. Shu tariqa, ilmiy atamalar tarjimasining izchilligi va aniqligi ilm-fan rivojiga, ta'lim tizimining yuksalishiga hamda xalqaro ilmiy hamkorlikning mustahkamlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa. Ilmiy atamalar tarjimasi lingvistik va madaniy jihatdan murakkab jarayon bo'lib, u terminlarning mazmunini to'g'ri yetkazish va ularning moslashuvini ta'minlashni talab etadi. Berilgan ishda ilmiy atamalarning tarjimada uchraydigan asosiy muammolari va ularning echimlari tahlil qilinadi. Xususan, turli tillardagi terminologik tizimlarning o'ziga xosligi, ekvivalent tanlash muammosi hamda ilmiy diskursning soddalashtirilishi yoki murakkablashtirilishi masalalariga e'tibor qaratiladi.

Tarjimada asosiy muammolardan biri — ba'zi terminlarning boshqa tilda to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentga ega emasligi. Bunday holatlarda transliteratsiya, kalkalash yoki izohiy tarjima usullari qo'llanadi. Shuningdek, tarjimonning bilim darajasi va tarjima qilayotgan fan sohasi bo'yicha yetarlicha tajribaga ega bo'lishi natijaviy tarjima sifatiga bevosita ta'sir etishi aniqlangan.

Ishda ilmiy atamalar tarjimasining dolzarbligi va uning fanlararo integratsiyadagi o'rni ta'kidlanadi. Turli tillar o'rtasida ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, tarjima jarayonlarini standartlashtirish va terminologik bazalarni boyitish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Shu tariqa, ilmiy atamalar tarjimasining to'g'ri yo'lga qo'yilishi ilmiy bilimlar almashinuvi samaradorligini oshirish va global ilmiy muloqotni rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Smith v. Johnson, Civil Action No. 3:09CV653 (E.D. Va. Mar. 3, 2011)
2. Cabre M. Terminology: Theory, Methods and Applications. Ed. Juan C. Sager.-Amsterdam: Benjamins, 1998.
3. Hojiyev A.. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati .T – 1985. 158. 81-bet

4. Mamatkulova, Roxila SO'Z, TERMIN VA ATAMA TUSHUNCHALARI, ULARNING O'ZIGA XOS SEMANTIK XUSUSIYATLARI // ORIENSS. 2023. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/so-z-termin-va-atama-tushunchalari-ularning-o-ziga-xos-semantik-xususiyatlari> (дата обращения: 20.02.2025).
5. Ақобиров С. Термин ва терминология.-Тошкент, 1968.
6. Аҳмедов Ғ., Бектемиров Ҳ. Русча-ўзбекча юридик атамалар лугати.-Тошкент: Адолат, 2002.
7. Бекмухамедов Х.Д. Тарих терминлари изоҳли лугати. Педагогика олий ўқув юртларининг студентлари ва ўрта мактаб тарих ўқитувчилари учун. Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
8. Дадабаев Х. Старотюркская дипломатическая терминология в XI-XIУ вв. Историко-лингвистический анализ лексики старописьменных памятников. -Ташкент: Фан, 1994. -С.4-13.